Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovixonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	



MADANIY-TOMOSHA XIZMATLARINING TAHLILI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annayev Abdurasul Abdurashidovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası assistenti

Mailto: abdurasul.annaev1@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada madaniy-tomosha xizmatlarining ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilinib, ushbu xizmatlarning milliy iqtisodiyotdagi roli hamda jamiyat taraqqiyotiga ta'siri yoritib berilgan. Madaniy xizmatlarni zamonaviy iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rish va ularni xizmatlar sohasi bilan bog'lash xizmatlar sohasining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Jumladan, iqtisodiy tomondan yuqori foyda va yangi ish o'rinlarini yaratishga olib keladi, ijtimoiy tomondan esa aholining madaniy bilimlarini yanada oshiradi. Bundan tashqari, mamlakatimizda madaniy-tomosha xizmatlarini yaxshilash hamda ularni xizmatlar sohasi tarkibiga kiritish orqali madaniy-tomosha xizmatlarini rivojlantirishga erishiladi. Tadqiqotda madaniy xizmatlarning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hisssasi hamda ijtimoiy samaradorligi aniqlanib, ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmat, xizmatlar sohasi, madaniy-xizmat, teatr, kino, konsert, muzey, spektakl, madaniyat, san'at, aholi farovonligi, qadriyat, nomoddiy madaniy meros.

Abstract: This scientific article analyzes the social and economic aspects of cultural and entertainment services, highlighting their role in the national economy and their impact on societal development. Cultural services are viewed as an essential component of modern economic activity, closely linked to the service sector, thus enhancing economic efficiency. Economically, these services contribute to higher profits and the creation of new jobs, while socially, they help to increase the cultural literacy of the population. Furthermore, the article emphasizes that integrating cultural and entertainment services into the broader service sector will foster their development. The study identifies the contribution of cultural services to the national economy and their social effectiveness, offering practical recommendations for their further advancement.

Key words: service, service sector, cultural service, theater, cinema, concert, museum, performance, culture, art, public welfare, values, intangible cultural heritage.

Аннотация: В данной научной статье анализируются социальные и экономические аспекты культурно-зрелищных услуг, освещается их роль в национальной экономике и влияние на развитие общества. Рассматривается культурное обслуживание как важная составная часть современной экономической деятельности и подчеркивается связь с сектором услуг, что способствует повышению экономической эффективности этой сферы. В частности, отмечается, что это приводит к увеличению прибыли и созданию новых рабочих мест с экономической точки зрения, а с социальной – способствует повышению культурного уровня населения. Кроме того, в статье подчеркивается, что интеграция культурно-зрелищных услуг в сферу услуг позволяет добиться их активного развития. В ходе исследования выявлены вклад культурных услуг в национальную экономику и их социальная эффективность, а также разработаны практические рекомендации по их дальнейшему развитию.

Ключевые слова: услуга, сектор услуг, культурная услуга, театр, кино, концерт, музей, спектакль, культура, искусство, благосостояние населения, ценности, нематериальное культурное наследие.

KIRISH

Madaniyat insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatning axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy-tomosha xizmatlari esa madaniyatning muhim bo'g'ini sifatida jamiyat hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholi uchun ma'naviy hordiq va estetik zavq manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda madaniy-tomosha xizmatlari iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki ularning rivojlanishi nafaqat madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishga, balki iqtisodiy-ijtimoiy o'sishga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, madaniy-tomosha xizmatlarining iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat sifatidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniy faoliyat va madaniy tashkilotlari haqida”[1]gi Qonunining 29-moddasida madaniyat markazlari faoliyatining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalar quyidagi ishlarni amalga oshirishdan iborat[2]:

Aholiga ko'rsatiladigan madaniy xizmatlar sifatini yaxshilash, aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tishini ta'minlash va madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish, ijodiy jamoalarning milliy qadriyatlarni, urf-odatlar va an'analarni o'zida mujassam etgan namunaviy dasturlarni shakllantirish;



Xalq ijodiyotini va badiiy havaskorlikni saqlash hamda rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalarni, havaskorlik guruhlarini tashkil etish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, ijodiy jarayonlarni tizimli asosda boyitib borish;

Bolalarni to'garaklarga jalb etish, ularni chet tillarga o'qitish, "Nutq madaniyati" kurslarini tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janrlari va yo'nalishlarini, havaskorlik san'atini va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holda kelajak avlodga yetkazish;

Adabiyot va san'at arboblari, professional ijodiy guruhlar bilan birga ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish hamda ular ishtirokida aholi, shu jumladan yoshlar bilan ijodiy uchrashuvlar va suhbatlar o'tkazish;

Xalq ijodiyoti va tomosha san'ati tanlovlarini, tuman (shahar) festivallarini o'tkazish, iste'dodli yoshlarni aniqlash hamda ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

Ommaviy bayramlar, tomoshalar hamda xalq sayillarini tashkil etish, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarga ko'ra ijtimoiy-madaniy bo'sh vaqtni tashkil etish sohasida pulli xizmatlar ko'rsatish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot mavzusiga oid ko'plab ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Xususan, R. Lin va C. Chen "A discourse on the construction of a service innovation model: focus on the cultural and creative industry park" [4] nomli maqolasida madaniy bog'lar tashrif buyuruvchilar uchun hududning tarixiy-madaniy merosini anglash va shu madaniyat muhitiga chuqurroq sho'ng'ish imkoniyatini taqdim etuvchi muassasalar sifatida tavsiflanadi. Ushbu bog'lar bilan atrofdagi mahalliy hamjamiyat o'rtasida aniq chegaralar mavjud bo'lmaganligi sababli, madaniy bog'larni boshqarish an'anaviy yondashuvlardan farqli tarzda, mahalliy aholi bilan samarali va doimiy muloqot olib borishni talab qiladi. Olimlarning fikricha, madaniy bog'lar hududiy makonda avlodlar davomida shakllangan madaniy muhitni aks ettirib, tarix va hududiy rivojlanish omillarini uyg'unlashtirgan holda shakllanadi. Bunday makonlar mahalliy tarixni anglash va milliy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bernd Stauss va Paul Mang "Culture shocks in inter-cultural service encounters?" [5] nomli maqolasida madaniy xizmat iste'molchilari va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida mustahkam o'zaro munosabatlarni shakllantirish jarayonini tushuntiradi. Globallashuv sharoitida tobora ko'payib borayotgan xizmat ko'rsatish kompaniyalari uchun turli madaniyatga mansub mijozlarning xizmat ko'rsatish jarayoniga nisbatan turlicha qarashlari madaniy xizmatni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, madaniy kutilmalar va idroklar farqi sababli xizmat ko'rsatish jarayonida muammoli "madaniy shok" hodisasi yuzaga kelishi mumkin. Ushbu atama xizmat sifati bilan bog'liq bo'lib, madaniyatlararo xizmat ko'rsatish sifatining modelini tavsiflaydi.

Madaniyatlararo xizmat jarayonida "madaniy shok"larning mavjudligi haqidagi farazni tekshirish uchun tanqidiy hodisalar texnikasi (CIT) asosida empirik tadqiqot o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari kutilmagan bo'lib, taqdim etilgan modelning yanada rivojlanishiga olib kelgan. Ushbu natijalar madaniyatlararo uchrashuvlar qanday sharoitlarda ichki madaniy uchrashuvlarga nisbatan kamroq muammoli bo'lib qabul qilinishini tushinishga imkon beradi.

V. A. Ginsburgh va D. Throsby "Handbook of the Economics of Art and Culture" [6] nomli qo'lyozmasida san'at va madaniyat sohasida ijodkorlik tushunchasi izohlangan bo'lib, san'at asarlari va xizmatlarining iqtisodiy va madaniy qadriyatlar alohida-alohida shakllanadigan parallel jarayonlar mavjudligi hamda qadriyat yaratish jarayoni yagona, bir butun hodisa sifatida tushuntirilgan. Olimlarning fikricha, ijodkorlik va san'atkorlarning xatti-harakati iqtisodchilar tomonidan jiddiy e'tibor berilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir.

Olimlar qo'lyozmaning boshqa bobida AQShdagi madaniy siyosat tanlovlarini iqtisodiy tahlil mahsuli sifatida, xususan, bozor muvaffaqiyatsizligi nuqtayi nazaridan tushuntirishga urinadi. Zimmer va Toepler "The Subsidized Muse: Government and the Arts in Western Europe and the United States"[7] nomli maqolasida bu yondashuvga qarshi chiqishadi. Ularning fikricha, neoklassik bozor muvaffaqiyatsizligi haqidagi dalillar har bir mamlakatda mavjud bo'lgan tarixiy va institutsional omillarni hisobga olmaydi va aynan shu omillar o'ziga xos madaniy siyosatlarning shakllanishiga olib keladi. Ya'ni: "Bozor muvaffaqiyatsizligi hukumat aralashuvi uchun kuchli dalil bo'lsa-da, u jamoat qo'llab-quvvatlashining xalqaro farqlarini tushuntirib bera olmaydi" (46-bet). Shu bilan birga, madaniy siyosatlar qanday institutsional tuzilmalar orqali amalga oshirilishidagi xalqaro farqlarni ham tushuntira olmaydi. Ularning dalili ishonarli hisoblanadi.

Q. J. Mirzayev, G. S. Mustafoev va B. K. Janzakovlarning "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti"[8] nomli o'quv qo'llanmasida moddiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlar bir-birini doimiy ravishda to'ldiruvchi hisoblanishi hamda ko'pchilik holatlarda tovarlarni xarid qilishga xizmatlarni iste'mol qilish hamroh bo'lishi tushuntirilgan. Bundan tashqari, olimlar madaniy dam olish muassasalarining asosiy vazifalarini sanab o'tganlar. Bular quyidagilar:

- Nomoddiy madaniy merosni (an'anaviy xalq madaniyati) saqlash va rivojlantirishga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish;



- Havaskorlarning badiiy ijodini, boshqa havaskor ijodiy tashabbuslarini hamda aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash;

- Aholining dam olishi va bo'sh vaqtini tashkil etish.

"Madaniy-tomosha xizmatlarining iqtisodiy faoliyat sifatidagi mohiyati, ahamiyati va xususiyatlari" [9] nomli maqolamizda madaniy-tomosha xizmatlarining iqtisodiy faoliyat sifatidagi mohiyati, ahamiyati va xususiyatlariga doir asosiy tushunchalar yoritib berilgan. Shu bilan birga, ushbu maqolada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga qarab moddiy va ma'naviy madaniyatlar tasniflab o'rganilgan.

B. Seydullaeva va A. Prekeeva tomonidan yozilgan "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv usullari va xarakteri"[10] nomli maqolada madaniyat va san'at sohasida boshqaruv samaradorligini oshirishda boshqaruv usullari va xarakterining ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, xodimlarni boshqarish va ijodiy jamoani shakllantirishda rahbarning vazifasiga alohida urg'u berilgan.

M. Xolmominovning "2017–2022-yillar mobaynida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi" [11] nomli maqolasida 2017–2022-yillar mobaynida yurtimizda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir amalga oshirilgan hamda kelgusida rejalashtirilgan ishlarning sarhisobi yoritib o'tilgan. Jamiyat rivojlanishi uchun madaniyatning o'rni qanchalik beqiyos ekani ko'rsatib berilgan.

Olim "Madaniyat va san'atning istiqbolini o'ylab yuritilgan oqilona siyosat milliy madaniyatimizning kelgusi rivoji uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek san'ati va sportining dunyo miqyosida yuksak natijalarga erishishi uchun zarur imkoniyatlar yaratildi." [11], deb ta'kidlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida madaniy-tomosha xizmatlarining rivojlanish holatini o'rganish uchun statistik ma'lumotlar yig'ish, soha mutaxassislari bilan intervyular o'tkazish va iste'molchilar orasida so'rovnoma tashkil etish rejalashtirildi. Olingan ma'lumotlar deskriptiv tahlil, taqqoslash usuli va regressiya tahlili yordamida chuqur tahlil qilinadi, rivojlanish tendensiyalari va omillar aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy dunyoda madaniyat va san'at iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, turizm va axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'lanmoqda. Shu sababli, madaniy-tomosha xizmatlarini qo'llab-quvvatlash nafaqat madaniy taraqqiyot, balki ijtimoiy hamjihatlik va iqtisodiy barqarorlik uchun ham zarurdir.

O'zbekiston sharoitida ushbu xizmatlarning rivojlanishi milliy o'zlikni mustahkamlash, yosh avlodning estetik va ma'naviy tarbiyasini shakllantirish hamda xalqaro madaniy muloqotni kengaytirish maqsadida madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar madaniyat sohasiga keng kirib kelayotgan bir paytda, milliy san'atni global miqyosda targ'ib etish va madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan yangi mexanizmlarni ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, madaniy-tomosha xizmatlarini sifat jihatidan oshirish, ularni keng ommaga yetkazish va ushbu sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etish jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Madaniy xizmatlarni yanada chuqurroq tushunib olish uchun uning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari bo'yicha SWOT tahlilini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval. Madaniy-tomosha xizmatlarning ijtimoiy va iqtisodiy SWOT tahlili¹.

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
Ijtimoiy jihatdan: - Milliy qadriyatlar va an'analarni targ'ib etishda samarali vosita. - Aholining estetik didini, ma'naviyatini yuksaltiradi. - Madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Iqtisodiy jihatdan: - Turizmni rivojlantirish orqali qo'shimcha daromad manbai bo'lishi mumkin. - Ish o'rinlarini yaratish (san'atkorlar, texnik xodimlar, sotuvchilar va h.k.).	Ijtimoiy jihatdan: - Aholining ayrim qatlamlari uchun madaniy tadbirlarga yetarli imkoniyatlar mavjud emas. - Madaniy kontentda zamonaviylikning yetishmasligi. Iqtisodiy jihatdan: - Davlat subsidiyalariga mavjud ehtiyoj hamda tijoratlashtirishda samaradorlik pastligi. - Zamonaviy marketing, texnologiyalarni samarali qo'llashdagi kamchiliklar kuzatiladi. Shuningdek, raqobatning oshishi ham ushlab turish qiyinchiliklarini tug'diradi.

1 Muallif tomonidan internet ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Imkoniyatlar	Kamchiliklar
Ijtimoiy jihatdan: - Raqamli texnologiyalar yordamida keng auditoriyaga yetib borish imkoniyati (masalan, onlayn konsertlar). Xalqaro madaniy almashinuvlar orqali tajriba oltirish. Iqtisodiy jihatdan: - Xususiy sektorni jalb qilish orqali daromad manbalarini ko'paytirish. - Kichik biznes va startaplar uchun yangi imkoniyatlar (suvenirler, kafe, xizmatlar).	Ijtimoiy jihatdan: - Yoshlar orasida chet el madaniyatiga haddan ortiq qiziqish, milliy qadriyatlarga befarqlik. - Madaniy kontent sifatining pasayishi ijtimoiy ongga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan: - Moliyaviy inqirozlar vaqtida birinchi qisqartiriladigan sohalaridan biri bo'lishi. - Bilet narxlarining aholining to'lov qobiliyatiga mos emasligi.

SWOT tahlili asosida madaniy-tomosha xizmatlarining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati yuksak bo'lsa-da, ularni rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Kuchli jihatlar sifatida milliy qadriyatlarni targ'ib etish, estetik didni yuksaltirish va turizm orqali daromad olish imkoniyati ajralib turadi. Shu bilan birga, davlat subsidiyalariga haddan ortiq tayanish, marketing va texnologik kamchiliklar zaif tomonlar sirasiga kiradi. Raqamli texnologiyalar va xalqaro madaniy almashinuv esa yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Biroq, yoshlarning chet el madaniyatiga haddan tashqari qiziqishi, moliyaviy inqirozlarda madaniyatga ajratiladigan mablag'ning qisqarishi tahdid sifatida baholanadi. Shunday ekan, madaniyat sohasida zamonaviy yondashuv, investitsiya jalb qilish va yoshlar orasida milliy qadriyatlarni ommalashtirish asosiy yo'nalish bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[3]gi qarorida bir qator kamchiliklar va ularni bartaraf etish maqsadida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

Ayni paytda milliy madaniyatimizni yanada rivojlantirish, uni zamon talablari asosida takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan yanada mukammal tartibga solish, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushmalar hamda birlashmalarining maqomini aniqlab beruvchi, shuningdek, ijodkorlarning ijtimoiy himoyasini kafolatlovchi yagona normativ-huquqiy bazani yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, yosh ijodkorlarni tarbiyalash, ularning iste'dodini aniqlash va rivojlantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda malakasini muntazam oshirib borish bo'yicha uzviy tizimni shakllantirish orqali madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish va madaniy xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangilash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash orqali ularning to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash, xalqaro andozalar darajasida xizmatlar ko'rsatishga erishish mumkin bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy madaniyatimizni zamonaviy media makonida munosib tarzda targ'ib qilish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali uni keng auditoriyaga yetkazish va xalqaro madaniy jarayonlarga samarali integratsiyalashuvga erishish dolzarb ahamiyatga ega.

Beshinchidan, madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro festival va tanlovlarda milliy ijodkorlarning faol ishtirokini rag'batlantirish, ularning eng sara asarlarini xalqaro miqyosda namoyish etish, milliy mahsulotlarni eksport qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, shuningdek, xorijiy hamkorlikni mustahkamlash orqali soha rivojiga yangi sur'at berish mumkin.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali milliy madaniyatimizni global madaniy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi, innovatsion va ijodiy soha sifatida rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadlari ilgari surilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi.

O'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalarini, o'ziga xos ijro maktablari va an'alarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O'zbek milliy maqom san'ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki



yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining o'tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo'lida muhim amaliy qadam bo'ldi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadlari qanchalik darajada amalga oshirilayotganligining tahlilini quyidagi 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonning madaniyat sohasida 2017-2023-yillar mobaynida bo'lgan statistik o'zgarishlar[12].

Yillar	1000 aholiga nisbatan adabiy-badiiy nashrlar soni (nusxada)	1000 aholiga nisbatan muzeylarga tashriflar soni (ming birlikda)	Teatrlar tomoshabinlari soni (ming kishi)	Drama, musiqiy komediya (opera) teatrlar soni (birlikda)	Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarida foydalanuvchilar soni (ming kishi)	Madaniyat markazlari soni (birlikda)
2017	753	195	2462,1	28	7100	879
2018	677	247	2394,9	33	7200	879
2019	557	232	2646,7	32	3100	833
2020	399	44	1090,5	31	3100	806
2021	150	145	1952,4	34	4200	798
2022	57	157	2053	32	11000	824
2023	99	156,9	3170	31	11400	836

Yuqoridagi jadvalda 2017–2023-yillar davomida O'zbekistonda madaniy-tomosha xizmatlari ko'rsatkichlari berilgan bo'lib, ularning tahlili quyidagicha.

1000 aholiga nisbatan adabiy-badiiy nashrlar soni 2017-yilda 753 nusxadan 2023-yilda 99 nusxagacha kamaygan. Bu keskin pasayishga (653 nusxaga) sabab sifatida raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida bosma kitoblarga ehtiyoj kamayganligini ko'rsatishimiz mumkin.

1000 aholiga nisbatan muzeylarga tashriflar soni (ming birlikda) 2017-yilda 195 mingdan 2023-yilda 156,9 mingga kamaygan. Bunda yoshlarda muzeylarga qiziqishning pasayishi yoki raqamli muzey ekskursiyalarining ommalashuvi sabab bo'lgan.

Teatrlar tomoshabinlari soni (ming kishi) 2017-yilda 2462,1 mingdan 2023-yilda 3170 mingga ko'tarilgan. Ushbu davr mobaynida 2020-yilda keskin pasayish (1090,5 ming) kuzatilgan, lekin keyinchalik tiklangan. Umuman olganda, ushbu 7 yillik o'sishda mamlakatimizda xalqaro madaniyat festivallari va madaniyatga davlat e'tiborining oshgani sabab qilib ko'rsatiladi.

Drama, musiqiy komediya (opera) teatrlar soni 2017–2023-yillar oralig'ida kichik o'zgarishlar bilan (28 tadan 31–34 oralig'iga) yetgan. Ushbu o'zgarishlar madaniyat sohasidagi yangi teatrlar ochilishi, mavjudlarining yopilishi hamda teatrlarning moliyalashtirilishi va modernizatsiyasi bilan bog'liq.

Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarida foydalanuvchilar soni (ming kishi) 2017-yilda 7100 ming kishidan 2023-yilda 11400 ming kishigacha oshgan. 2020-yilda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da (3100 ming), 2022–2023-yillarda rekord darajaga chiqqan. Bu o'sish kutubxonalarning raqamlashtirilishi, Wi-Fi tarmoqlarining joriy etilishi, elektron resurslarning kengayishi va o'quvchilar hamda talabalar sonining oshishi bilan bog'liq.

Madaniyat markazlari soni 2017-yilda 879 tadan 2023-yilda 836 taga biroz kamaygan. 2021-yilda eng past (798) ko'rsatkich qayd etilgan, keyin esa ozroq o'sish kuzatilgan. Ushbu kamayishga ba'zi markazlarning optimallashtirilishi yoki birlashtirilishi sabab bo'lgan, boshqa tomondan esa yangi qurilishlar natijasida markazlar vaqtincha faoliyatini to'xtatgan.

Umuman olganda, madaniy-tomosha xizmatlari sohasida 2020-yilda pandemiya ta'siri bilan pasayish kuzatilgan, ammo so'nggi yillarda ko'plab yo'nalishlarda tiklanish va o'sish kuzatilmoqda. Teatrqa qiziqish oshgan, axborot-resurs markazlari faoliyati kengaygan. Adabiy nashrlar soni esa keskin kamaygan – bu raqamli transformatsiya jarayonidan dalolat beradi.

Bizningcha madaniy-tomosha xizmatlarini rivojlantirish yo'llari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Raqamlashtirish va onlayn platformalarni rivojlantirish orqali madaniy tadbirlarni (konsert, teatr, ko'rgazmalar) onlayn shaklda tomosha qilish imkoniyatini yaratish. Bu orqali chekka hududlardagi aholiga ham sifatli madaniy kontent yetkazish mumkin.



- Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, madaniy sohani tijoratlashtirish orqali xususiy investorlar va homiylarni jalb etish. Bu madaniy loyihalarning moliyaviy mustaqilligini oshiradi.
- Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ya'ni talantli yoshlar uchun grantlar, tanlovlar, ijodiy rezidensiyalar tashkil etish orqali sohada yangilik yaratish va zamonaviy g'oyalarni ilgari surish.
- Hududiy madaniyat markazlarini rivojlantirish va ularni sifat hamda miqdor jihatidan oshirish, jumladan, qishloq va kichik shaharlar uchun zamonaviy madaniyat markazlari qurish yoki rekonstruksiya qilish.
- Madaniyat va turizm integratsiyasini kuchaytirish, ya'ni madaniy tadbirlarni turistik yo'nalishlarga birlashtirish, festivallar, xalq o'yinlari, an'anaviy san'at turlarini sayyohlarga namoyish etish orqali daromad olish.
- Madaniy xodimlar malakasini oshirish. San'atkorlar, sahna ustalari, rejissyorlar va texnik xodimlar uchun zamonaviy treninglar, mahorat darslari va xorijiy tajriba almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish.
- Madaniy-ta'limiy hamkorlikni kuchaytirish. Maktablar, kollej va oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda spektakl, ko'rgazma va konsertlarga tashriflarni tashkil etish. Bu yosh avlodda madaniy qiziqishni oshiradi.
- Milliy va zamonaviy madaniyat uyg'unligini ta'minlash, an'anaviy san'at turlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, yoshlarga jozibador shaklda taqdim etish.
- Davlat tomonidan soliq va subsidiya imtiyozlari berish. Madaniyat sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar va tadbirkorlar uchun soliq yengilliklari va grantlar orqali sohani qo'llab-quvvatlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda madaniy-tomosha xizmatlarining rivojlanishi davlat tomonidan qator dasturlar orqali qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, teatr va kinoteatrlarning rekonstruksiya qilinishi, milliy festivallar va san'at ko'rgazmalarining tashkil etilishi, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan grant va stipendiyalar tizimining joriy etilishi bu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq, hali ham ushbu yo'nalishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular orasida puxta ishlab chiqilgan huquqiy bazaning yaratilmaganligi, malakali kadrlarning kamligi, auditoriyani jalb qilish strategiyalarining yetarli emasligi va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmagani ham soha rivojiga to'sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, madaniy-tomosha xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- Birinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali madaniy tadbirlarning onlayn translyatsiyasini tashkil etish hamda auditoriyani kengroq jalb qilish uchun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish;
- Ikkinchidan, yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va ular uchun grant hamda stipendiyalar tizimini yanada takomillashtirish, teatr, kinoteatr va muzeylarning infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ularning texnik imkoniyatlarini oshirish;
- Uchinchidan, mahalliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali madaniy almashinuv dasturlarini kengaytirish hamda shu bilan birga madaniy xizmatlarni iqtisodiy jihatdan barqaror qilish maqsadida turizm va ijodiy industriyalar bilan integratsiyalash;
- To'rtinchidan, milliy madaniyat va san'atni xalqaro maydonda targ'ib qilish hamda madaniy xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun maxsus dasturlar va innovatsiyalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, madaniy-tomosha xizmatlari nafaqat jamiyatning ma'naviy yuksalishiga, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sohaning kompleks rivojlanishi madaniyatning ommaviyligini oshirish va milliy merosni kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.01.2021-yildagi O'RQ-668-son <https://lex.uz/docs/-5230682>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.01.2021-yildagi O'RQ-668-sonli qonunning 29-moddasi. <https://lex.uz/docs/-5230682>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori. 2018-yil 28-noyabr, PQ-4038-son. <https://lex.uz/acts/-4084926>
4. Rungtai Lin va Chun-Liang Chen "A discourse on the construction of a service innovation model: focus on the cultural and creative industry park" E-Business – Applications and Global Acceptance 2012 119-136-betlar.
5. Bernd Stauss, Paul Mang "Culture shocks" in inter-cultural service encounters?" Journal of Services Marketing 1 August 1999 <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/08876049910282583/full/html>
6. Victor A. Ginsburgh va David Throsby "handbook of the economics of art and culture" Oxford OX5 IGB, UK 2006.
7. Zimmer va Toepler "The Subsidized Muse: Government and the Arts in Western Europe and the United States" Journal of Cultural Economics March 1999. 17 bet. <https://link.springer.com/article/10.1023/A:1007565515785>
8. Қ.Ж.Мирзаев, Ғ.С.Мустафоев, Б.К.Жанзаков "ХИЗМАТЛАР СОҲАСИ ИҚТИСОДИЁТИ ЎҚУВ ҚўЛЛАНМА" Самарқанд 2023 "STEP-SEL" МЧЖ. Нашриёти, 2023 – 418 бет.



9. Annayev Abdurasul Abdurashidovich "Madaniy-tomosha xizmatlarining iqtisodiy faolyat sifatidagi mohiyati, ahamiyati va xususiyatlari" Journal of science-innovative research in Uzbekistan" 2024-04-20 <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/5257/10319>
10. Seydullaeva Bibiayim Erejep qizi, Prekeeva Amangul Angsatbevna "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv usullari va xarakteri" Международный научный журнал февраль, 2023г. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5439/3631>
11. Mo'minmirzo Zokir O'g'li Xolmo'minov "2017- 2022-yillar mobaynida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi" Журнал: Oriental Art and Culture 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/20172022-yillar-mobaynida-madaniyat-va-san-at-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi>
12. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi <https://stat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
